A.A.Abakulova va M.M.Shadurskayalarning fikricha, "Soliq ma'muriyatchiligi kengroq tushuncha bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi: budjet tizimiga soliq tushumlarini nazorat qilish, rejalashtirish va prognozlash, soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq nazorati doirasida amalga oshiriladigan mexanizmlar nuqtai nazaridan soliq mexanizmi tartibga solishdir"[5].

V.A.Krasnitskiy "Soliq ma'muriyatchiligi" tushunchasini ikki tomondan ochib bergan. Birinchidan, bu boshqaruv organlari tizimi (qonun chiqaruvchi va ma'muriy soliq organlari). Ularning vazifalariga keyingi rejalashtirish davri uchun soliq konseptsiyasini o'tkazishni protsessual qo'llab-quvvatlash kiradi: ko'rib chiqish va muhokama qilish, qonun hujjatlarini tasdiqlash. Bundan tashqari, ular soliq budjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzishlari, ularni har tomonlama tahlil qilishlari kerak. Ikkinchidan, bu soliq harakatlari va aniq soliq texnikasini tartibga soluvchi, shuningdek, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilovchi normalar va qoidalar majmuidir"[6].

N.Z.Zotikov ilmiy ishlarida soliq ma'muriyatchiligiga ta'rif berish bilan birgalikda, uning predmeti va obyektiga ham aniqlik kiritgan. Soliq ma'muriyatchiligi – bu davlatda soliq munosabatlarini boshqarish tizimi bo'lib, soliq organlarining faoliyati asosida ishlaydi. Soliq organlari tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan amalga oshiriladigan nazorat so'zining tor ma'nosi soliq ma'muriyatchiligini anglatadi.

"Soliq ma'muriyatchiligining predmeti - davlat soliq siyosati ta'sirida subyektlar (soliq organlari, soliq to'lovchilar) tomonidan boshqaruvning huquqiy usullari yordamida amalga oshiriladigan soliq munosabatlari.

Soliq ma'muriyatchiligining obyekti – soliq organlarining faoliyati va soliqlar va yig'imlarning davlat tomonidan belgilangan tizimi hisoblanadi"[7].

Soliq ma'muriyatchiligi tushunchasiga J.J.O'rmonov ham ta'rif bergan: "Soliq ma'muriyatchiligi-soliqlar va soliq obyektlarini hisobga olish, soliq nazoratini amalga oshirish, soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikni belgilash, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi va soliq munosabatlari ishtirokchilarining majburiyatlarini bajarilishini nazorat qilish bo'yicha davlat fiskal organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi soliq munosabatlarini boshqarish tizimidir"[8].

Soliq ma'muriyatchiligining tarkibiy qismi bo'lib soliq imtiyozlari ma'muriyatchiligidir. Soliq ma'muriyatchiligining asosiy usullari soliq prognozi, rejalashtirish, soliq nazorati, soliq imtiyozi va boshqalar.

Bu borada B.A.Fedosimovning ilmiy ishlarida soliq ma'muriyatchiligining soliq imtiyozi segmenti o'z ichiga olishligi qayd etilgan[9]. B.A.Fedosimovning fikricha, soliq ma'muriyatchiligi deganda vakolatli davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarining samarali soliq siyosatini amalga oshirish, shu jumladan, budjet daromadlarini ko'paytirish bilan birga byudjet xarajatlarini minimallashtirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni aniqlash va joriy etish bo'yicha faoliyati tushunilishi kerak.

Imtiyozli segmentda soliq ma'muriyatchiligining maqsadi soliq tushumlarini ta'minlash, soliq to'lovchilarning alohida toifalari, soliq solish jarayonlari va obyektlari to'g'ri hisobga olinishi, soliq deklaratsiyasi va boshqa hujjatlarni rasmiylashtirish, soliq imtiyozlarini berishning mohiyati va tartibini tushuntirishdan iborat. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, soliq ma'muriyatchiligining asosiy masalalaridan biri bu – soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarini berishning mohiyati va tartibini tushuntirishdir.

3 Гончаренко, Л. И. Налоги и налоговая система Российской Федерации: учебник и практикум для академического бакалавриата / 2-е изд., перераб. и доп. М.: Издательство Юрайт, 2019. 524 с.

4 Майбуров, И.А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям "Экономика" и "Менеджмент", специальностям "Экономическая безопасность", "Таможенное дело" / И. А. Майбуров [и др.]; под ред. И. А. Майбурова. – 7-е изд., перераб. и доп. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. – 503 с.

5 Абакулова А. А. Шадурская М. М., Налоговое администрирование в условиях цифровизации экономики. Финансы и кредит. 2022.

6 В.А.Красницкий Налоговое администрирование. https://wiseeconomist.ru/poleznoe/29668-nalogovoe-administrirovanie. 25.02.2023.

7 Зотиков Н.З. Налоговое администрирование, его влияние на налоговую нагрузку. Вестник Сургутского государственного университета. 2022; (1 (35)):26-37. https://doi.org/10.34822/2312-3419-2022-1-26-37.

8 Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Diss. Avtoreferati. 2018.

9 Федосимов, Б. А. Ф33 Правовой режим налоговых льгот по законодательству Российской Федерации: монография / Б. А. Федосимов. – Чебоксары: ИД "Среда", 2019. – 152 с.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Soliq ma’muriyatchiligining soliq imtiyozi bilan bog‘liqligining yaqqol namoyon soliq ma’muriyatchiligining rag‘batlantiruvchi maqsadidir. M.Yu.Lev, A.I.Bolonin va Yu.G.Leshenkolar soliq ma’muriyatchiligining rag‘batlantirish maqsadini quyidagicha izohlaydi: So‘nggi yillarda “rag‘batlantiruvchi soliqqa tortish”ga katta e’tibor berilmoqda. U biznes daromadlari uchun imtiyozlar berish va ishlab chiqarishni rag‘batlantirish uchun mukofot va jarimalarni belgilashga qaratilgan ko‘plab tashabbuslarni o‘z ichiga oladi. Imtiyozli rejimning maqsadi investitsiya faoliyatining zarur yo‘nalishda zarur oqimini rag‘batlantirishdan iborat. Rag‘batlantiruvchi soliqqa tortish doirasida investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish uchun bir qancha turdagi imtiyozlar taqdim etiladi[10].

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib, Soliq ma’muriyatchiligi bu soliqlar to‘lovchilarni hisobga olishdan boshlanib, to ularni tugatishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni qamrab oluvchi soliq munosabatlari tizimi deb xulosa qilamiz. Soliq imtiyozlari ma’muriyatchiligi esa soliq ma’muriyatchiligining bir qismi hisoblanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada soliq imtiyozlari ma’muriyatchiligi bo‘yicha tadqiqot olib borilgan bo‘lib, induksiya, deduksiya, ilmiy abstraksiya va taqqoslama tahlillar, diagrammalar asosida ilmiy natijalar olingan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida soliq ma’muriyatchiligi va uning tarkibiy qismi bo‘lgan soliq imtiyozlari ma’muriyatchiligining nazariy masalalari hamda muammolarini keltirib o‘tdik. Endi mamlakatimizda soliq imtiyozlari ma’muriyatchiligining haqiqiy ahvoli qanday ekanligini tahliliy ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqamiz va tegishli xulosalar qilamiz. Buning uchun berilgan soliq imtiyozlari ko‘rsatkichlari bo‘yicha oxirgi besh yillik ma’lumotlarni tahlil qilamiz.

1-jadval: 2019–2023-yillarda soliq imtiyozlaridan foydalangan tashkilotlarning hududlar kesimida tahlili[11], mlrd.so‘m

| № | Hudud | Jami imtiyozdan foydalangan tashkilotlar | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2019-yil | | 2020-yil | | 202-yil | | 2022-yil | | 2023-yil | |
| | | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi |
| Jami | | 68 113 | 29 136,0 | 93871 | 31 065,6 | 57981 | 43 479,3 | 130654 | 72 963,7 | 142 159 | 69 777,9 |
| 1 | Andijon viloyati | 4 813 | 3 846,5 | 6 199 | 391,2 | 4 350 | 380,1 | 7 660 | 1 689,3 | 8261 | 881,3 |
| 2 | Buxoro viloyati | 5 083 | 805,7 | 6 328 | 645,3 | 4 885 | 727,4 | 9 519 | 1 162,6 | 8805 | 961,2 |
| 3 | Jizzax viloyati | 4 420 | 354,6 | 3 008 | 172,3 | 1 952 | 170,7 | 5 147 | 634,9 | 5337 | 396,9 |
| 4 | Qashqadaryo viloyati | 5 274 | 993,3 | 7 449 | 688,1 | 4 332 | 906,1 | 10 804 | 898,4 | 11027 | 657,7 |
| 5 | Navoiy viloyati | 2 876 | 437,6 | 4 763 | 286,2 | 2 769 | 192,8 | 5 579 | 527,1 | 5283 | 447,3 |
| 6 | Namangan viloyati | 3 945 | 601,5 | 5 094 | 453,0 | 3 517 | 509,5 | 7 304 | 1 440,7 | 7488 | 922,8 |
| 7 | Samarqand viloyati | 4 703 | 1 058,7 | 6 769 | 488,3 | 3 590 | 745,8 | 9 755 | 1 956,8 | 10048 | 1 245,1 |
| 8 | Surxondaryo viloyati | 3 464 | 355,4 | 5 016 | 393,2 | 2 723 | 555,3 | 6 434 | 717,3 | 8395 | 543,6 |
| 9 | Sirdaryo viloyati | 1 746 | 396,1 | 2 197 | 223,9 | 1 451 | 198,1 | 3 769 | 655,7 | 4264 | 377,6 |
| 10 | Toshkent shahri | 13 413 | 10 567,2 | 20501 | 13 159,1 | 11237 | 4 443,6 | 25272 | 10 624,2 | 24284 | 7 548,7 |
| 11 | Toshkent viloyati | 4 754 | 3 070,5 | 7 076 | 2 325,8 | 3 902 | 766,1 | 11 605 | 2 901,0 | 10395 | 1 648,3 |
| 12 | Farg‘ona viloyati | 5 050 | 885,6 | 7 670 | 445,2 | 4 795 | 598,4 | 10 499 | 1 978,9 | 10737 | 1 425,0 |
| 13 | Xorazm viloyati | 3 819 | 456,1 | 5 453 | 612,3 | 3 951 | 448,2 | 9 220 | 879,0 | 8481 | 677,7 |
| 14 | Qoraqolpog‘iston Respublikasi | 4 580 | 292,5 | 6 164 | 465,9 | 3 864 | 330,5 | 7 383 | 548,8 | 17834 | 569,4 |
| 15 | Yirik soliq to‘lovchilar | 173 | 5 014,7 | 184 | 10 315,8 | 663 | 32 506,6 | 704 | 46 348,7 | 1520 | 51 475,2 |

1-jadvalda 2019–2023-yillarda soliq imtiyozlaridan foydalangan tashkilotlarning hududlar kesimida tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, ko‘rish mumkinki, 2019-yilda jami imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 68113 tani tashkil etgan bo‘lsa, berilgan imtiyozlar summasi 29 136 mlrd.so‘mni tashkil etgan. 2020-yilda imti-

10 Лев М.Ю., Болонин А.И., Лещенко Ю.Г. Налоговое администрирование как механизм укрепления экономической безопасности налоговой системы государства // Экономическая безопасность. – 2022. – Том 5. – № 2. – С. 525-546. – doi: 10.18334/эcsec.5.2.114626.

11 Soliq qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

yozdan foydalangan tashkilotlarning soni 93871 ta bo'lsa, berilgan imtiyozlar summasi 31 065,6 mlrd.so'mni, 2021-yilda imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 57981 ta bo'lsa, berilgan imtiyozlar summasi 43 479,3 mlrd.so'mni, 2022-yilda imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 130654 ta bo'lsa, berilgan imtiyozlar summasi 72 963,7 mlrd.so'mni va nihoyat 2023-yilda imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 142159 tani va berilgan imtiyozlar summasi 69 777,9 mlrd.so'mni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan o'zgarish imtiyozdan foydalangan tashkilotlarning soni 74 046 taga ortib, deyarli bir yarim barobarga ortgan, berilgan imtiyozlar summasi 40 641,9 mlrd.so'mga ortib, deyarli uch barobarga oshib borganligini ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda soliq imtiyozlari berish darajasi o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ularning iqtisodiyotga ta'siri qanchalik samaradorligini tahlil qilishga yana bir zarurat vujudga kelmoqda.

2-jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, 2023-yil davomida deyarli barcha tarmoqlar soliq turlari bo'yicha imtiyozlardan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha 2019-yilda 5 304 ta holatda 10 928,8 mlrd. so'm, 2023-yilda 10269 ta holatda 24 433,9 mlrd.so'm soliq imtiyozidan foydalangan bo'lib, 2023-yilda umumiy soliq imtiyozlari summasining 35,0 foiziga to'g'ri kelmoqda hamda etakchilikni egallagan tarmoq hisoblanadi.

Shu o'rinda tahlillar asosida ta'kidlab o'tish joizki, soliq imtiyozlari ma'muriyatchiligini takomillashtirish maqsadida byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlarini qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarni bekor qilish kerak deb hisoblaymiz. Chunki QQS imtiyozlarini olib tashlash orqali hukumat ilmiy-tadqiqot institutlarini faqat soliq imtiyozlaridan foydalanish uchun ilmiy loyihalarni amalga oshirish o'rniga, haqiqatda innovatsion va tijoratlashtirish uchun yuqori salohiyatga ega bo'lgan loyihalarga e'tibor qaratishga undashi mumkin. Bu byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishga olib kelishi, pirovardida soliq to'lovchilar uchun investitsiyalardan ko'proq daromad keltirishi mumkin.

Bundan tashqari, QQS imtiyozlarini olib tashlash ma'muriy xarajatlarni kamaytirilishi va soliq tizimini soddalashtirilishiga olib keladi. Budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot va innovatsion ishlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyozlarning amaldagi tizimi soliq ma'muriyatchiligida ortiqcha murakkablikni keltirib chiqarmoqda, natijada soliq to'lovchilar uchun ham, davlat uchun ham qo'shimcha ma'muriy xarajatlarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu imtiyozlarni olib tashlash orqali soliq tizimini soddalashtirish ushbu xarajatlarni kamaytirishi va soliq to'lovchilar uchun soliqqa rioya qilishni osonlashtirishi mumkin.

3-jadvalda 2019–2023-yillarda soliq turlari bo'yicha qo'llanilgan soliq imtiyozlari bo'yicha tahlil keltirilgan bo'lib, 2019-yilda soliqlar bo'yicha jami 68 112 ta tashkilotga 29136,0 mlrd. so'm, 2020-yilda 93871 ta tashkilotga 31 065,6 mlrd. so'm, 2021-yilda 109363 ta tashkilotga 43 479,3 mlrd. so'm, 2022-yilda 195044 ta tashkilotga 72939,2 mlrd. so'm va nihoyat, 2023-yilda 211926 ta tashkilotga 69 777,9 mlrd. so'm soliq imtiyozlari qo'llanilganini ko'rish mumkin.

Alohida soliq turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, 2019-yilda QQS bo'yicha berilgan imtiyozlar summasi 11 380 ta tashkilotga nisbatan 23 073,8 mlrd. so'mni tashkil etib, eng katta imtiyoz berilgan soliq turiga aylantirilganligini ko'rish mumkin. 2023-yilda bu summa ushbu soliq turi bo'yicha 25 415 ta tashkilotga nisbatan 58 525,1 mlrd. so'mni tashkil etib yana eng katta soliq imtiyoziga ega bo'lib turganligini ko'rishimiz mumkin. Keyingi soliq imtiyozlarining katta summasi yuridik shaxslar tomonidan to'lanadigan foyda solig'iga to'g'ri kelishini guvohi bo'lish mumkin. 2019-yilda foyda solig'i 763 ta tashkilotga nisbatan 2 785,4 mlrd. so'm, 2023-yilda esa 21 407 ta tashkilotga nisbatan 5 021,7 mlrd. so'mni tashkil etayotganligini ko'rish mumkin. 2018-2022-yillar davomida soliq imtiyozlarining o'sishi bo'yicha tahliliy natijaviylikka e'tiborni qaratadigan bo'lsak, unda uning ta'siri mamlakatga, soliq imtiyozlari turiga, iqtisodiy va siyosiy kontekstga qarab farq qilishi mumkin. Biroq, umuman olganda, soliq imtiyozlarining ko'payishi bir qator potentsial oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Birinchidan, soliq imtiyozlarini ko'paytirish korxonalar tomonidan muayyan xatti-harakatlar yoki investitsiyalarni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalariga investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini taklif qilish yoki yangi xodimlarni yollash korxonalarning ushbu turdagi investitsiyalar bilan shug'ullanishi uchun katalizator bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchi yirik soliq imtiyozidan foydalangan soha moliyaviy va sug'urta xizmatlari bo'lib, 2019-yil 338 ta holatda 6 055,2 mlrd.so'm, 2023-yilda 683 ta holatda 14 953,4 mlrd.so'm soliq imtiyozidan foydalangan bo'lib, 2023-yilda umumiy soliq imtiyozlari summasining 21,4 foiziga to'g'ri kelmoqda. 2019-2023-yillarda soliq imtiyozlaridan foydalangan tarmoqlar bo'yicha jami 492486 ta holat bo'lib, 246 422,6 mlrd.so'm soliq imtiyozidan foydalanilgan.

Endi yuqoridagilarga asoslanib, tahlil qiladigan bo'lsak, soliq imtiyozlarini ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirish iqtisodiy o'sish va rivojlanishni rag'batlantirishning samarali usuli bo'lishi mumkin. Soliq imtiyozlari korxonalarni yangi asbob-uskunalar va texnologiyalarga sarmoya kiritish uchun rag'batlantirishi mumkin, bu esa samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Soliq imtiyozlarini ishlab chiqarish faoliyatiga yo'naltirish orqali korxonalarni o'z faoliyatini kengaytirishga va ishlab chiqarishni ko'paytirishga undash mumkin, bu esa bandlik va iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va soliq imtiyozi qo'llanishining asosiy sabablaridan biri hamdir.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2-jadval: 2019–2023-yillarda soliq imtiyozlaridan foydalangan tarmoqlar bo'yicha tahlil1, mlrd. so'mda

| № | Soha nomi | Jami 5 yilda foydalanilgan soliq imtiyozlari | | 2019-yil | | 2020-yil | | 2021-yil | | 2022-yil | | 2023-yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | xolatlar soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi |
| **Jami** | | **492 486** | **246 422,6** | **68 113** | **29 136,0** | **93 871** | **31 065,6** | **57 981** | **43 479,3** | **130 690** | **72 963,7** | **141 831** | **69 777,9** |
| 1 | Ishlab chiqarish faoliyati | 37 572 | 90 692,4 | 5 304 | 10 928,8 | 7 309 | 11 652,5 | 4 515 | 16 308,9 | 10 176 | 27 368,3 | 10269 | 24 433,9 |
| 2 | Moliyaviy va sug'urta xizmatlari | 2 424 | 51 664,4 | 338 | 6 055,2 | 466 | 6 456,2 | 288 | 9 036,0 | 649 | 15 163,6 | 683 | 14 953,4 |
| 3 | Ulgurji va chakana savdo | 153 795 | 34 668,8 | 22 942 | 4 164,9 | 31 618 | 4 440,8 | 19 530 | 6 215,3 | 44 020 | 10 430,0 | 35685 | 9 417,9 |
| 4 | Tashish va saqlash faoliyati | 16 475 | 18 187,0 | 2 192 | 2 138,8 | 3 021 | 2 280,5 | 1 866 | 3 191,8 | 4 206 | 5 356,2 | 5190 | 5 219,6 |
| 5 | Qishloq xo'jaligi | 118 862 | 10 166,9 | 15 268 | 1 320,4 | 21 043 | 1 407,9 | 12 997 | 1 970,5 | 29 296 | 3 306,6 | 40258 | 2 161,5 |
| 6 | Qurilish sohasidagi faoliyat | 12 247 | 6 608,7 | 1 646 | 750,0 | 2 268 | 799,6 | 1 401 | 1 119,2 | 3 158 | 1 878,1 | 3774 | 2 061,8 |
| 7 | Boshqa sohalar | 151 109 | 34 434,6 | 20 422 | 3 777,9 | 28 145 | 4 028,1 | 17 385 | 5 637,8 | 39 185 | 9 460,9 | 45972 | 11 529,8 |

1 Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Lekin soliq imtiyozlari aniq iqtisodiy foyda keltiradigan ishlab chiqarish faoliyatiga yoʻnaltirilishini taʼminlash muhim. Juda keng yoki yomon ishlab chiqilgan soliq imtiyozlari moʻljallangan taʼsirga ega boʻlmasligi va isrof boʻlish xavfi mavjud. Shu sababli, bu siyosatni amalga oshirishdan oldin soliq imtiyozlarini ishlab chiqarish faoliyatiga yoʻnaltirishning mumkin boʻlgan xarajatlari va afzalliklarini diqqat bilan koʻrib chiqish lozim.

Moliyaviy xizmatlarga soliq imtiyozlarini ajratish investitsiyalarni ragʻbatlantirish va moliya sektoridagi oʻsishni ragʻbatlantirish uchun kerak. Moliyaviy xizmatlar uchun soliq imtiyozlarini taklif qilish yangi moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarga investitsiyalarni rag'batlantirishdan potentsial foyda keltiradi va shu bilan sanoatda yuqori samaradorlik va innovatsiyalarni rag'batlantiradi.

Soliq imtiyozlarini sog'liqni saqlash va ta'lim sohasidagi sa'y-harakatlarga yo'naltirish muhim ijtimoiy va jamoat tovarlariga investitsiyalarni rag'batlantirish strategiyasi bo'lib xizmat qiladi. Bunday soliq imtiyozlari xususiy sektorni hukumat tomonidan an'anaviy tarzda taqdim etiladigan sohalarga jalb etishni ragʻbatlantirishi va sifatli sogʻliqni saqlash va taʼlim xizmatlaridan foydalanishga yordam berishi mumkin. Sogʻliqni saqlash va taʼlim faoliyati uchun soliq imtiyozlarini taqdim etishning bir qancha mumkin boʻlgan afzalliklari mavjud. Jumladan, soliq imtiyozlari sogʻliqni saqlashning yangi texnologiyalari, tibbiy tadqiqotlar va taʼlim dasturlariga sarmoya kiritishni ragʻbatlantirishiga olib keladi, bu esa sogʻliqni saqlash natijalarini yaxshilashga va jamiyat uchun yaxshi taʼlim natijalariga xizmat qilishi mumkin hamda kam taʼminlangan hududlarda yashovchilar uchun sogʻliqni saqlash va taʼlim xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirishga yordam beradi.

3-jadval: 2019–2023-yillarda soliq turlari boʻyicha qoʻllanilgan soliq imtiyozlari boʻyicha tahlil12, mlrd. soʻmda

| № | Soliq turlari | 2019-yil | | 2020-yil | | 2021-yil | | 2022-yil | | 2023-yil | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi | soni | summasi |
| **Jami** | | **68 113** | **29 136,0** | **93 871** | **31 065,6** | **109 363** | **43 479,3** | **195 044** | **72 939,2** | **211 926** | **69 777,9** |
| 1 | QQS | 11 380 | 23 073,8 | 7 031 | 24 643,3 | 15 508 | 36 766,3 | 28 214 | 64 107,9 | 25 415 | 58 525,1 |
| 2 | Foyda soligʻi | 763 | 2 785,4 | 3 335 | 2 930,0 | 2 709 | 2 219,5 | 25 015 | 4 641,3 | 21407 | 5 021,7 |
| 3 | Er soligʻi | 6 736 | 880,1 | 4 531 | 1 313,2 | 11 743 | 2 575,9 | 6 204 | 931,8 | 15453 | 1 697,6 |
| 4 | Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq | 33 866 | 789,0 | 44 093 | 917,9 | 56 165 | 1 073,8 | 41 580 | 1 028,3 | 40328 | 1 024,8 |
| 5 | Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq | 31 | 469,3 | 673 | 443,7 | 1 376 | 39,1 | 685 | 12,3 | 1432 | 28,6 |
| 6 | Ijtimoiy soliq | 3 993 | 340,9 | 6 230 | 346,5 | 11 247 | 386,3 | 52 616 | 1 187,4 | 81692 | 2 002,3 |
| 7 | Mol-mulk soligʻi | 382 | 583,2 | 4 813 | 274,0 | 2 195 | 306,1 | 7 809 | 933,0 | 12827 | 1 399,6 |
| 8 | Aylanmadan olinadigan soliq | 10 962 | 214,3 | 23 165 | 196,9 | 8 420 | 112,3 | 32 921 | 97,2 | 13372 | 78,2 |

Ikkinchidan, soliq imtiyozlarining koʻpayishi korxonalar uchun umumiy soliq yukini kamaytirishga yordam beradi. Soliq toʻlovchilarga kredit summasini soliq majburiyatidan chegirib tashlashga ruxsat berish orqali soliq imtiyozlari korxonalar toʻlashi kerak boʻlgan soliqlar miqdorini samarali ravishda kamaytirishi mumkin.

Uchinchidan, soliq imtiyozlarining koʻpayishi davlat daromadlari va byudjetga taʼsir qilishi mumkin. Agar soliq imtiyozlari juda keng tarqalgan boʻlsa, ular hukumat yigʻadigan daromad miqdorini kamaytirishi mumkin, bu esa muhim davlat xizmatlari va infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishni qiyinlashtirishi mumkin.

Biz quyida keltirilgan 4-jadvalda 2019-2023-yillar davomida ayrim soliq toʻlovchilar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlarini tahlil qilib chiqqanmiz.

12 Soliq qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

4-jadval: 2019–2023-yillarda soliq to'lovchilar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlar tahlili[13], mlrd. so'mda

| № | Korxonalar nomi | Foydalanilgan jami imtiyozlar summasi | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2019-y. | 2020-y. | 2021-y. | 2022-y. | 2023-y. |
| 1 | "UZAUTO MOTORS" AJ | 3 330 288,83 | 7 820,70 | 1 118,27 | 785 864,37 | 824 553,11 |
| 2 | "OLMALIQ KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ | 900 073,67 | 1 412 461,46 | 1 917 492,43 | 3 447 530,65 | 2 777 263,43 |
| 3 | "O'ZTRANSGAZ" AJ | 152 776,52 | 528,04 | 158 163,03 | 248 489,61 | 2 431,75 |
| 4 | "CHIRCHIQ GIDROELEKTRSTANSIYALAR KASKADI" UK | 5 596,29 | 5,69 | 344,01 | 5 838,96 | 15 202,14 |
| 5 | "UZ-KOR GAS CHEMICAL" MCHJ QK | 1 037 501,21 | 1 178 881,04 | 1 117 134,21 | 1 249 423,24 | 899 051,62 |
| 6 | "QIZILQUMSEMENT" AJ | 22 338,15 | 3 055,71 | 26 343,31 | 20 597,53 | 24 128,99 |
| 7 | "BUXORO NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODI" MCHJ | 79 778,54 | 4 966,30 | 4 336,29 | 23 821,40 | 28 416,85 |
| 8 | "SAMARQAND XALQARO AEROPORTI" MCHJ | 29 750,10 | 21 812,57 | 16 894,91 | 12 605,14 | 8 834,45 |
| 9 | TOSHKENT SHAHAR ELEKTR TARMOQLARI KORXONASI AJ | 7 348,77 | 1 895,33 | 1 464,38 | 370,72 | 0,00 |
| 10 | O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI AJ | 341 918,72 | 418 734,76 | 820 154,03 | 926 134,14 | 1 005 956,00 |

4-jadvaldan ko'rish mumkinki, "UZAUTO MOTORS" AJ 2019-yilda 3 330,29 mlrd.so'm, 2020-yilda 7,82 mlrd.so'm, 2021-yilda 1,12 mlrd.so'm, 2022-yilda 785,86 mlrd.so'm va 2023-yilda 824,5 mlrd.so'm soliq imtiyozlaridan foydalangan bo'lsa, "Toshkent shahar elektr tarmoqlari korxonasi" AJ 2019-yilda 7,35 mlrd.so'm, 2020-yilda 1,90 mlrd.so'm, 2021-yilda 1,46 mlrd.so'm, 2022-yilda 0,37 mlrd.so'm soliq imtiyozlaridan foydalanib va 2023-yilda kelib soliq imtiyozlaridan foydalanilmagan, "UZ-KOR GAS CHEMICAL" MCHJ QK 2019-yilda 1 037,5 mlrd.so'm, 2020-yilda 1 178,88 mlrd.so'm, 2021-yilda 1 117,13 mlrd.so'm, 2022-yilda 1 249,42 mlrd.so'm va 2023-yilda 899,05 mlrd.so'm soliq imtiyozlaridan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ko'rish mumkinki, barcha korxonalar yillar kesimida soliq imtiyozlaridan foydalanib kelishgan bo'lib, ularning summalari 2018-2022-yillar davomida turli xil o'zgarish dinamikasini namoyon qilmoqda. Har uchala korxona ham soliq imtiyozlaridan faol foydalangan, bu esa soliq imtiyozlaridan foydalanish shakllari o'zgaruvchanlikni ko'rsatadi, ba'zi yillarda boshqalardan ko'ra ko'proq foydalanilgan. Ushbu tebranishlarga biznes sharoitidagi o'zgarishlar, hukumat siyosati va investitsiya strategiyalari kabi omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Soliq imtiyozlaridan foydalanishdagi o'zgarishlar, shuningdek, ushbu korxonalar o'rtasida turli xil xavf profillarini aks ettirishi mumkin. Ko'proq moliyaviy yoki bozor o'zgaruvchanligiga duch kelgan korxonalar xavfni kamaytirish strategiyasi sifatida soliq imtiyozlaridan foydalanishga moyil bo'lishadi. Buni yuqoridagi korxonalardan "UZAUTO MOTORS" AJ faoliyatida ham kuzatish mumkin, chunki ushbu korxonada 2019-yilda foydalangan soliq imtiyozlarining summasi yuqori bo'lib, 2020-2021-yillarda pasayganini ko'rish mumkin. Ammo soliq imtiyozlaridan foydalanish 2022-yilda yana o'sganini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan soliq imtiyozlarining eng katta foydalanilgan soliq imtiyozi summasi QQSga to'g'ri kelmoqda, buning asosiy sababi eksport bilan shug'ullanganligidir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 260-moddasi 1-bandida "O'zbekiston Respublikasi hududidan eksport bojxona tartib-taomiliga olib chiqilgan tovarlar uchun nol darajali stavka bo'yicha soliq solish" tartibi amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, shu sababli ham ushbu soliq turi bo'yicha foydalanilgan soliq summasi katta ulushga ega.

Eksport bilan bog'liq soliq imtiyozlaridan foydalanish xalqaro savdo, valyuta tushumlari va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish orqali ijobiy iqtisodiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Biroq, soliq to'lashdan bo'yin tovlash yoki noto'g'ri foydalanishga olib kelmasdan, belgilangan maqsadlarga erishish uchun ushbu siyosatlarni kuzatib borish juda muhimdir.

13 Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, eksport uchun QQS bilan bog'liq soliq imtiyozlaridan foydalanish xalqaro savdo va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan davlat siyosatiga mos keladigan strategik qarordir. Bunday imtiyozlardan foydalanish eksportga yo'naltirilgan sanoatni rivojlantirish orqali ham korxonalarga, ham kengroq iqtisodiyotga sezilarli foyda keltirishi mumkin. Shunga qaramay, siyosatni samarali amalga oshirish va muvofiqlik monitoringi orqali eksportni rag'batlantirish va soliq tushumlarining yaxlitligini ta'minlash o'rtasida muvozanatni saqlash juda muhimdir.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni ta'kidlash kerakki, soliq imtiyozlari iqtisodiyot va jamiyat uchun ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jumladan:

- **Iqtisodiy o'sish.** Bunda soliq imtiyozlari korxonalarga soliq yukini kamaytirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin, bu esa investitsiyalar, bandlik va iste'molni oshirishi mumkin. Bu iqtisodiy ishlab chiqarishning ko'payishiga, mahsuldorlikning oshishiga va turmush darajasining yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.
- **Fiskal ta'sir.** Soliq imtiyozlari davlat daromadlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ayniqsa ular boshqa daromad manbalari yoki xarajatlarni qisqartirish bilan qoplanmagan bo'lsa. Bu byudjet taqchilligi va davlat qarzining oshishiga olib kelishi mumkin, bu esa uzoq muddatda iqtisodiyot va jamiyat uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.
- **Samaradorlik.** Soliq imtiyozlari soliqlarni yig'ish va ularga rioya qilish bo'yicha ma'muriy xarajatlarni kamaytirish orqali soliq tizimining samaradorligini oshirishi mumkin. Shuningdek, soliq to'lovchilarni soliq qonunchiligiga rioya qilishga undashi va soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini kamaytirishi mumkin.
- **Innovatsiyalar.** Soliq imtiyozlari korxonalar uchun ushbu faoliyat xarajatlarini kamaytirish orqali innovatsiyalar va tadqiqot va ishlanmalarni rag'batlantirishi mumkin. Buning natijasida iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshirishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar paydo bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, soliq imtiyozlarining iqtisodiyot va jamiyatga ta'siri ularni ishlab chiqish va amalga oshirishga, shuningdek, ular faoliyat yuritadigan kengroq iqtisodiy va ijtimoiy kontekstga bog'liq. Shuning uchun soliq imtiyozlarini amalga oshirishdan oldin ularning xarajatlari va afzalliklarini diqqat bilan baholash muhim hisoblanadi.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Лев М.Ю., Болонин А.И., Лещенко Ю.Г. Налоговое администрирование как механизм укрепления экономической безопасности налоговой системы государства // Экономическая безопасность. – 2022. – Том 5. – № 2. – С. 525-546. – doi: 10.18334/ecsec.5.2.114626.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-iyuldagi "Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4389-son qarori.
3. Гончаренко, Л. И. Налоги и налоговая система Российской Федерации: учебник и практикум для академического бакалавриата / 2-е изд., перераб. и доп. –М.: Издательство Юрайт, 2019. –524 с.
4. Майбуров, И.А. Налоги и налогообложение: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям "Экономика" и "Менеджмент", специальностям "Экономическая безопасность", "Таможенное дело" / И. А. Майбуров [и др.]; под ред. И. А. Майбурова. – 7-е изд., перераб. и доп. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2018. – 503 с.
5. Абакулова А. А. Шадурская М. М., Налоговое администрирование в условиях цифровизации экономики. –Финансы и кредит. –2022.
6. В.А.Красницкий Налоговое администрирование. https://wiseeconomist.ru/poleznoe/29668-nalogovoe-administrirovanie. 25.02.2023.
7. Зотиков Н.З. Налоговое администрирование, его влияние на налоговую нагрузку. Вестник Сургутского государственного университета. 2022; (1 (35)):26-37. https://doi.org/10.34822/2312-3419-2022-1-26-37.
8. Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Diss. Avtoreferati. 2018.
9. Федосимов, Б. А. Ф33 Правовой режим налоговых льгот по законодательству Российской Федерации: монография / Б. А. Федосимов. – Чебоксары: ИД "Среда", 2019. – 152 с.
10. Лев М.Ю., Болонин А.И., Лещенко Ю.Г. Налоговое администрирование как механизм укрепления экономической безопасности налоговой системы государства // Экономическая безопасность. – 2022. – Том 5. – № 2. – С. 525-546. – doi: 10.18334/эсsec.5.2.114626.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.